

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligi**

**O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Madaniyat Markazi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti**

**O‘zbekiston-Ozarbayjon Do‘stlik jamiyati**

**“Nizomiy Ganjaviy va  
Alisher Navoiy ijodi turkiy  
dunyo she‘riyatining faxri,  
jahon adabiyotining  
cho‘qqisi”**

**mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari**

**Toshkent - 2022**

UO'K 821.512.153 (092)

KBK 84

Navoiy

“Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi turkiy dunyo she'riyatining faxri, jahon adabiyotining cho'qqisi” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari.  
– Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2022. – 210 bet.

**Mas'ul muharrir:**

Shuhrat Sirojiddinov,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati:**

Nurboy Jabborov, Iqboloy Adizova, Dilnavoz Yusupova, Karomat Mullaxo'jayeva, Gulbahor Ashurova, Akramjon Dehqonov, Ozoda Tojiboyeva.

**Taqrizchilar:**

**Boqijon To'xliyev**

filologiya fanlari doktori, professor

**Uzoq Jo'raqulov**

filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur anjuman materiallari ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning 880 yilligi, turkiy she'riyat sultoni Alisher Navoiyning 580 yilligini xalqaro miqyosda tashkil etish haqidagi davlat qarorlari doirasida tayyorlandi. To'plamdan Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati, shuningdek, xamsanavislaik an'anasi, adabiy ta'sir, hamkorlik aloqalari, qiyosiy adabiyotshunoslik muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar o'rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

*Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2022 26-fevraldagi 5-son raqamli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

## NAVOIY USTOZING SENING...

**Sohiba UMAROVA**

*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti dotsenti, PhD*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Navoiy she'rlaridan ilhomlanib, ta'sirlanib qanchadan qancha asarlar yuzaga keldi. Nafaqat turkiyda yozilgan she'rlar balki, forsiy tilida bitilgan she'rlarda ham Navoiy ijodiga hamohanglik seziladi.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kirgan 4 devonda shoir lirik merosining eng katta qismi jamlagan. Albatta, Alisher Navoiy she'riy merosida g'azallar asosiy o'rinda turadi, shu bilan birga devonlardagi boshqa janrlarning ham o'z g'oyaviy-badiiy o'rni beqiyosdir. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 4 ta tarji'band bo'lib, har bir devonga bittadan joylashtirilgan. Tarji'bandlarning tasavvufiy-falsafiy, ikkitasi ishqiy mavzuda yozilgan. Xazoyin ul-maoniy"ning "Navodir ush shabob" devonidan joy olgan ikkinchi tarji'band "Jahon qasrig'adur su uzra bunyod" misrasi bilan boshlanib, hajman 8 band (bandlar 11 yoki 12 baytli), 103 baytni o'z ichiga oladi. Navoiyning ushbu tarji'bandi tasavvufiy-falsafiy mavzuda bo'lib, unda shoirning dunyoning yaratilishi, olam va odamzodning o'zaro munosabati, dunyoning bevafoqligi, umrning o'tkinchi ekanligi haqidagi fikrlari bilan birga tasavvufiy-falsafiy qarashlari bayon etilgan. Shoirning fikricha, dunyodagi barcha narsalar suv ustida bunyod etilgan, shuning uchun ham ular omonat, faqatgina Yaratuvchi zot abadiy, boqiy, inson o'z umrining qisqa ekanligini anglashi va o'zini to'ralicha Yaratganni tanishga, ezgu ishlar qilishga sarflashi lozim. E'tiborlisi, tarji'banddagi barcha bandlar "jahon" so'zi boshlanadi va shu so'zda shoirning asosiy fikri jamlanadi. Ya'ni:

Jahon qasrig'adur su uzra bunyod  
Chu yo'q bunyodi, andin bo'lmag'il shod.

Ne shod o'lg'ay kishi bir qasrdinkim,  
Ani Tengri yaratmish mehnatobod.

Emastur qasr, balkim qosiredur,  
Ki taqsir aylamas aylarga bedod.

Tiriklik qushlarig'a yoyibon dom,  
Tengiz amvojidin andoqki sayyod.

Kiyib qatl aylamakka loladin to'n,

Qiyodin tig' tortib misli jallod.

Emas qotil parivash dilbaredur,  
Ki javridin qutulmas odamizod

Funun-u lobasi andoq muassir,  
Ki mum aylar ko'ngul gar bo'lsa po'lod.

Vale ne ishvasig'a e'timode,  
Ne oning va'dai vaslig'a bunyod.

Visoli ko'z yumub ochquncha oxir,  
Firoqi ko'z ochib yung'uncha barbod.

Ko'ngul qo'yima angakim boqiy ermas,  
Inonmas bo'lsalar, aylay qasamyod –

tarji'banddagi quyidagi vosila baytda ham "jahon" so'zi asosiy urg'uni oladi:

Baqosizdur jahon ra'nosi valloh,  
Jahon ra'nosi yo'qkim, mosivalloh.

Navoiy demoqchiki, jahon baqosiz, abadiy jahon ra'nosi yo'qdir. Shunday ekan, unda bog'lanib qolish kerak emas. Biz buyuk shoirning aynan mana shu tarji'bandining keyingi ijodkorlar tomonidan davom ettirilganligiga e'tibor qaratmoqchimiz.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhiti adabiyotimiz tarixida katta ijodiy merosni tashkil etadi, Sayyid Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning adabiyotga, madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibori tufayli bu davrda ko'plab shoir va navozandalar yetishib chiqqan [Navoiy 1989, 479]. Muhammad Rahimxon soniy – Feruz Alisher Navoiy ijodiga kuchli muhabbat va hurmat bilan qaragan. Navoiyning g'azallariga taxmis bog'lagan ko'plab shoirlar bo'lgan. Shunday iste'dod sohiblaridan biri Ahmad Tabibiy edi. Ahmad Tabibiy forsiy merosiga mansub O'zRFAShI bir nechta devon va bayozlar saqlanmoqda. Tabibiy she'rlarida insonning hayotdagi o'rni, xatti-harakati, ilm o'rganishi, kasb egallashi borasidagi mulohazalari bilan birga, ruhiy kechinmalar, lirik chekinishlarni ayricha, poetik jihatdan o'ziga xos tasvirlagan san'atkordir.

Ahmad Tabibiyning ikkinchi forsiy devonida 5 bandli, har bir band esa 14 misradan iborat tarji'bandi keltirilgan [Navoiy 1989, 479]. Tabibiy tarji'bandi Navoiyning yuqorida keltirilgan tarji'bandiga hamohang, hamfikir tarzda yozilgan. Tabibiy tarji'bandi shunday boshlanadi:

Qusuri charx k-u misli hubob ast,

Zamin dar ob sokin yak turob ast.

Ya'ni: Charx qasri xuddi hubob – pufakka o'xshaydi, yer suv ustida sokin turgan bir omonat tuproq kabidir. Demak, Navoiy jahon qasrini suv ustida bunyod etilgan omonat desa, Tabibiy dunyonini hubob, pufakka o'xshatadi. Har ikkala shoirda ham jahonning omonat ekanligi aytilmoqda. Keyingi bayt:

Chi soziy siymu dirhamro, ki oxir

Ba har surat hisob astu, azob ast.

Ya'ni: Nega siymu dirhamni yig'asan, axir ularning bari oxirida ham hisob, ham azob-ku! Tabibiy Navoiyning "mehnatobod" degan so'zini o'zining qarashlari bilan to'ldiradi. Keyingi bayt:

Bubinad zulmi u shaxsi gadoy,

Va-yo shohanshahi oliy janob ast.

Ya'ni: Charxning zulmini gadoy ham, oliyjanob shahanshoh ham birdek ko'rgaydir. Navoiy "ki javridin qutulmas odamizod" deganda barcha insonlarni nazarda tutadi, Tabibiy insonlarni gado va shoh deb ko'rsatib, aniqlashtiradi. Keyingi bayt:

Nabandad bil ba-u yak lahza oqil,

Ki in nukta sarosar intixob ast.

Ya'ni: Oqil kimsa bir lahza ham unga ko'ngil bog'lamaydi, zero bu falsafa avvaldan tanlangandir. Navoiy "ko'ngul qo'yima angakim boqiy ermas" degan so'zlarini Tabibiy "oqil bo'lsang" degan murojaat bilan kuchaytiradi.

Bidonad in suxanro bekamu kost,

Har on kas k-u fazilat intisob ast.

Ya'ni: Bu so'zni bekamu ko'st har kimki fazilat kasb etgan kimsa bu so'zni, ya'ni jahon bebaqoligini biladi.

Na ahli dahr vayron ast tanho,

Imoroti jahon yaksar xarob ast.

Ya'ni: nafaqat dahr ahli vayron bo'ladi, bir kun kelib, balki jahon imoratlari yaksar xaroblikka yuz tutadi.

Tabibiy tarji'bandida takrorlanuvchi quyidagi bayt ham "jahon" so'zi bilan boshlangan:

***Jahon jomu, falak soqiy ajal may,***

***Xaloyiq bodano'shi suhbatlari vay.***

Ya'ni: jahon jomu, falak soqiydir, ajal may, xaloyiq ana shu yig'inda may ichuvchilardir. Xaloyiq bodano'sh uning suhbatida, ya'ni jahon haqida qancha suhbatlashmasin, uning muammosini yechishni hal qilishga urinmasin, baribir hech natija bo'lmaydi. Bu bayt yuqorida Navoiy tarji'bandidagi takrorlanuvchi

baytning mazmuniga hamohang, hamfikrdir. Dunyoning bevafoqligi, dunyoni anglashga urinishlar haqida Umar Xayyom ham yozgan edi:

**Ko'plar donishmand deb bildilar o'zni,  
Xudoning zotidan ochdilar so'zni.  
Hech biri bilolmay azal sirlarin,  
Aljirab valjirab yumdilar ko'zni.**

Yana har ikkala she'r ham hazaji musaddasi maqsur (mafoiylun mafoiylun mafoiyl) vaznida yozilgani ma'lum bo'ladi. Demak, Alisher Navoiy ijodi shoir hayot vaqtidayoq keng tarqalgan, ixlosmandlar qalbidan o'rin olgan bo'lsa, keyingi davrlarda ham shoir ijodidan bahramandlik, unga ergashish, ustoz sifatida ehtirom, hurmat ko'rsatish davom etgani o'ta maroqlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tabibiy. Devoni Tabibiyi forsiy. دیوان طبیبی فارسی Qo'lyozma. Inv. Raqami 7083. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti. Toshkent: O'zbekiston.
2. Sharq qo'lyozmalari to'plami. II jild. 1954. Toshkent: O'zbekiston.
3. Qur'oni Karim. 1992. Tarjima va izohlarmuallifi Aloudin Mansur. Toshkent: O'zbekiston.
4. G'anixo'jaev, F. 1978. Ahmad Tabibiy (hayoti va ijodi). Toshkent: O'zbekiston.

### **“XISRAV VA SHIRIN” SYUJETLI O'ZBEK TILIDAGI XALQONA QISSA**

**Ozoda TOJIBOEVA**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

O'zbek xalqi qadimdan fors-tojik tilidagi asarlarni tarjimasiz asliyatdan mutolaa qilgani yaxshi ma'lum. Ijodkorlar, omma orasidagi ikki tillilik imkoniyati tufayli ham Alisher Navoiy dostonlari qatorida forsiy tildagi Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlari birdek o'qilgan. Fikrimizni qo'lyozmalar fondidagi Nizomiy, Dehlaviy, Fuzuliy dostonlarining ko'chirilgan ko'plab qo'lyozma nusxalari ham dalillaydi. Mazkur syujet daho shoirlar o'zlari ta'kidlab o'tganidek xalq orasida mashhur va keng yoyilgan hikoya syujetiga asoslangan bo'lsada, keyingi davr adabiyotida ham yozma adabiyotdan tashqari xalq og'zaki ijodida o'z davrini yashagan. Qiziqarlisi, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy dostonlari asosidagi qissalar ko'p bo'lishi, aynan nasriy qissa shaklida ishlanishi bilan bir qatorda har uch xamsanavis

## **Mundarija**

- Shuhrat SIROJIDDINOV. XXI asr – Nizomiy va Navoiy adabiy merosi
- Iso HABBIBEYLI. Alisher Navoiy – umumturkiy adabiyotning buyuk vakili
- Jamol KAMOL. Shayx Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sini qanday tarjima qildim?
- Naim KARIMOV. Navoiy, Shayxzoda ijodi va jahon adabiyoti
- Ibrohim HAQQUL. Hukmdorlik ravnaqi to‘g‘rilik va adolatdir
- Samir ABBASOV. Ikki xalqning buyuk siymolari
- Chander SHEKHAR. Amir Khusrau and his Mathnawi Duwal Rani w Khizrkhani
- Nurboy JABBOROV. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning ijod tutumi
- Uzoq JO‘RAQULOV. Ulug‘lar anjumani
- Dilnavoz YUSUPOVA. “Panj ganj” tarkibidagi dostonlarning vazn manbalari
- Shoira AXMEDOVA. Gyote va Sharq: Nizomiyga muhabbat
- Gulbahor ASHUROVA. Mustaqillik davri o‘zbek –azarbayjan adabiy alaqalari: Nizomiy “Xamsa” sining tarjimasi haqida
- Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ilm talqinining ifodalanishi
- Ilyos ISMOILOV. Nizomiy “Iskandarnoma”sining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi
- Muqimjon NURBUVAYEV. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodining Yevropada o‘rganilishi
- O‘lmasbek XO‘JAYEV. Nizomiy Ganjaviyning Xamsa: Iskandornoma” dostonida nasihatlar talqini (“Sharafnoma” misolida)
- Sohiba UMAROVA. Navoiy ustozing sening...
- Ozoda TOJIBOEVA. “Xisrav va Shirin” syujetli o‘zbek tilidagi xalqona qissa
- Yulduz ABDULHAKIMOVA. “Layli va Majnun” dostoni qahramonlari talqinida Navoiy va Fuzuliyning badiiy mahorati
- Shahnoza PANJIYEVA. Navoiy tuzgan guldasta
- Zulfira NO‘MONOVA. Abdulla Oripov ijodida Navoiy shaxsining badiiy ifodasi